

Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2025-yil yanvar-oktabr oylari uchun

- I. Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Andijon viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

Bugungi kunda viloyatda 4 486 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy soniga nisbatan yuqori ulushga ega 1 198 tasi (26,7 %) Andijon shahriga, 529 tasi (11,8 %) Andijon tumaniga, 352 tasi (7,8 %) Shahrixon tumaniga, 306 tasi (6,8 %) Asaka tumaniga va 263 tasi (5,8 %) Xo'jaobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-noyabr holatiga ko'ra



II. Andijon viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Sanoat - bu, xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2025-yilning yanvar-oktabr oyida viloyat korxonalari tomonidan 83 749,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024-yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 107,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

	Hajm mlrd so'm	Fizik hajm indeksi %
Andijon viloyati	83 749,6	107,3
Andijon sh.	13 822,4	112,3
Xonobod sh.	3 359,4	108,2
<i>Tumanlar</i>		
Oltinko'l	1 640,8	111,9
Andijon	1 931,5	110,7
Baliqchi	2 931,0	110,8
Bo'ston	752,5	115,9
Buloqboshi	1 899,2	139,4
Jalaquduq	2 041,5	120,1
Izboskan	1 564,2	132,1
Ulug'nor	958,3	119,4
Qo'rg'ontepa	3 390,3	117,1
Asaka	34 161,5	97,3
Marhamat	1 876,6	135,2
Shahrixon	2 389,0	118,0
Paxtaobod	1 613,8	115,1
Xo'jaobod	3 248,3	110,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Andijon viloyatida 2025-yilning yanvar-oktabr oyida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 24 037,6 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 105,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, Buloqbosh tumanida (137,0 %), Marxamat tumanida (132,7 %), Izboskan tumanida (129,7 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish yanvar-oktabr oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 80 984,6 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (96,7 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 1 495,0 mlrd so'm (1,8 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 1 105,4 mlrd so'm (1,3 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda 164,6 mlrd so'm (0,2 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi 2025-yilning yanvar-oktabr oylarida
2025-yilning yanvar-oktabr oylarida



**III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan
ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatda 197 402 dona yengil avtomobillar (2024 yilning yanvar-oktabr oyiga nisbatan 6,8 % ga kamaygan), 20,7 ming tonna Neft (21,6 % ga ko'paygan), hamda 56,4 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (73,7 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-oktabr *	2024-yil yanvar-oktabr *	2025-yil yanvar-oktabr *
Yumshoq bug'doy va spelta uni ming tonna	31,2	32,5	56,4
Paxta tolasi ming tonna	30,2	29,7	59,3
Neft ming tonna	17,2	17,0	20,7
Paxta chigiti ming tonna	2,9	62,1	5,2
Paxtadan yigirilgan ip ming tonna	34,7	56,7	23,4
Temir yoki po'lat simdan matolar, panjaralar, to'rlar tonna	283,5	175,7	114,6
Yengil avtomobillar dona	217 167	211 795	197 402
80 % dan kam bo'lmagan etil spirti ming litr	8 825,0	6 838,0	6 759,2

**2023-2024-yillar yanvar-oktabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar
tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlar**

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2024 yilning yanvar-oktabr oylarida 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 53,2 % (67,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 6,2 % (2,9 %), quyi texnologiyali esa 40,5 % (29,3 %)ni tashkil etgan.






**Andijon viloyatida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish
yanvar-oktabr oylarida**

Yengil avtomobillar – umumiy yoki “maxsus yengil avtomobillar”ga bo‘linib, 4 kishigacha mo‘ljallangan transport vositasi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2025-yilning yanvar-oktabr oylarida 131 769 dona “Cobalt” (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 % ga kamaygan), 40 034 dona “Tracker” (13,5 % ga oshgan), 25 599 dona “Onix” (12,0 % ga kamaygan) ishlab chiqarildi.

**Andijon viloyatida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish,
donada**
yanvar-oktabr oylarida



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
sohasida sanoat korxonalari tomonidan
sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi**

2025-yilning yanvar-oktabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 96,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-oktabr *	2024-yil yanvar-oktabr *	2025-yil yanvar-oktabr *
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	327,7	712,2	685,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	0,4	0,0	0,0

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish bo'yicha 11,2 % ga kamaygani kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar-oktabr *	2024-yil yanvar-oktabr *	2025-yil yanvar-oktabr *
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar - mlrd so'm	90,5	131,1	115,2
Oqava suvlarning shlami - mlrd so'm	15,1	29,1	26,5

*2023-2024-yillar yanvar-oktabr oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 29 363,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 35,1 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-oktabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 27,7 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat – bu, xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Andijon viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erfbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi



Ijrochi:

O'. Karimov
74 224-80-00 (6012)